



BUXORO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



Dastlabki ma'lumot
2023-yil yanvar - aprel



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vosisidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiyl ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichlari shular jumlasidandir.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



O'sish sur'ati

Tarkibiy qism



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-aprel oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **4641,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022 - yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **103,9** % ga yetdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **374,1** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **153,4** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **4267,3** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **101,0** %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **550,8** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **101,2** %) tashkil etdi.

**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'SISH SUR'ATLARI**


Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar – aprel oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonal ar mlrd. so'm	2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. So'm	2022- yil yanvar – aprel oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	4 641,4	103,9	374,1	153,4	4267,3	101,0
Buxoro shahri	1 376,5	108,3	174,0	121,0	1202,5	106,6
Kogon shahri	162,7	102,6	3,6	130,4	159,1	102,1
tumanlar						
Olot	132,5	101,6	2,3	91,8	130,2	101,7
Buxoro	341,9	102,0	9,2	6,2 m.	332,7	99,7
Vobkent	174,2	102,9	2,3	89,0	171,9	103,2
G'ijduvon	845,6	102,0	19,2	109,7	826,4	101,8
Kogon	127,9	102,0	93,4	163,7	34,5	50,5
Qorako'l	405,4	102,1	3,8	96,8	401,6	102,2
Qorovulbozor	107,8	102,8	0,5	90,7	107,4	102,9
Peshku	158,5	102,4	57,6	21,5 m.	100,9	66,3
Romitan	298,5	102,8	2,4	98,1	296,1	102,8
Jondor	296,7	102,2	3,3	82,8	293,4	102,5
Shofirkon	213,2	101,5	2,5	95,3	210,7	101,6

2023- yilning yanvar-aprel oylarida 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan viloyatning Buxoro shahri (**108,3 %**), Vobkent (**102,9 %**) va Qorovulbozor (**102,8 %**) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'ati qayd etildi.


YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi (yanvar-aprel, mldr.so'm)



So'nggi 6 yillikda chakana savdo Tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'ati 2022-yil yanvar-aprel oyida kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan **113,0%** ni yoki **3 789,3 mldr. so'mni** tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida (foizda) (2022 yil, 2023- yil yanvar–aprel oylari)




2023- yilning yanvar-aprel oylarida o'sish sur'ati **103,9 %** ni tashkil qildi.




CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **4 267,3 mlrd. so'mni** tashkil etib, 2022 - yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **1,0 %** ga ko'paydi. . Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **91,9 %** ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atga ega hududlar(foizda)




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022 - yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **53,4 %** ga o'sdi va **374,1 mlrd. so'mni** tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **8,1 %** ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qorovulbozor (**99,6 %**), Romitan (**99,2 %**) va Qoraqo'l (**99,1 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo Tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi **8,1 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Kogon (**73,0 %**), Peshku (**36,3 %**) tumanlari va Buxoro (**12,6 %**) shahrida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
Buxoro viloyati	2 305,5	102,2
Buxoro shahri	4 750	106,2
Kogon shahri	2 549,8	100,5
<i>tumanlar</i>		
Olot	1 286,1	100,1
Buxoro	1 951,5	100,4
Vobkent	1 192,1	101,3
G'ijduvon	2 661,6	100,2
Kogon	1 545,2	100,2
Qorako'l	2 386,0	100,7
Qorovulbozor	5 500,9	100,2
Peshku	1 227,4	100,7
Romitan	2 001,0	101,0
Jondor	1 625,7	100,6
Shofirkon	1 155,8	100,1


2023 - yilning yanvar-aprel holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **2 305,5** ming. so'mni (2022 - yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **102,2 %**) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Qorovulbozor (**5 500,9** ming. so'm), Buxoro shahri (**4 750,0** ming. so'm) va G'ijduvon (**2 661,6** ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Buxoro viloyati bo'yicha 2023 - yilning yanvar-aprel oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **550,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **101,2** % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12- bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **251,8** mlrd. so'mni (**98,3** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **299,0** mlrd so'mni tashkil etdi (**103,9** %).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)



UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – aprel oylariga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	550,8	101,2	251,8	98,3	299,0	103,9
Buxoro shahri	91,3	86,9	82,7	91,3	8,6	59,7
Kogon shahri	15,7	113,4	5,4	62,6	10,3	198,4
<i>tumanlar</i>						
Olot	41,7	113,4	5,9	81,9	35,8	121,2
Buxoro	7,7	55,9	7,1	100,2	0,6	9,4
Vobkent	50,4	120,1	30,0	107,5	20,4	145,1
G'ijduvon	91,9	53,0	45,1	47,3	46,8	60,1
Kogon	1,4	4,5 m.	1,4	4,5 m.	-	-
Qorako'l	106,5	197,1	46,5	21,8 m.	60	115,6
Qorovulbozor	10,8	123,1	2,0	145,5	8,8	119,0
Peshku	33,6	150,5	7,1	3,7 m.	26,5	129,8
Romitan	32,3	132,5	7,9	169,4	24,4	123,7
Jondor	36,9	171,0	4,5	5,3 m.	32,4	156,2
Shofirkon	30,6	109,4	6,2	74,8	24,4	124,1

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdag'i tadbirkorlar (YATT)ni qo'shмаган holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning yanvar-aprel oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **251,8** mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (**99,1** mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari	Mlrd. so‘m
	Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari 99,1
	Non va non mahsulotlari 19,5
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 9,8
	Tovuq go‘shti 13,9
	Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 15,5
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...) 6,0
	Tuxum 6,3
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak 1,8
	Ziravorlar 5,0
	Tuzlamalar 5,4
	Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari (manzarali va qishloq xo‘jaligi) 2,5
	Nooziq-ovqat tovarlari 31,2

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023 - yilning yanvar-aprel oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv o’tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **299,0** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **251,5** mlrd.so‘m, qo‘y va echkilar **31,6** mlrd. so‘mni, otlar **1,2** mlrd. so‘mni, parrandalar **0,9** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)	Mlrd. so‘m
 2 yoshdan katta bo‘lgan qoramollar	137,7
 1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	67,9
 1 yoshgacaha bo‘lgan yosh mollar	45,9
 Qo‘ylar	21,1
 Otlar	1,2
 Echkilar	10,5
 Kurka, o‘rdak, g‘oz	0,5
 Tovuqlar	0,2
 Quyonlar	0
 Qushlar	0,2

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023 - yil 1 - may holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalar soni **2 095** tani tashkil etib, 2022- yil 1 – may holatiga nisbatan **338** taga oshgan va o'sish sur'ati **119,2 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **6** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **2 089** tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar-aprel oylarida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasining ulushi **4,1 %** ni tashkil etib, **190,7** mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **2,3 %** ga ko'paydi. Bunda savdo aylanmasining **87,9 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonala r mlrd. so'm	2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan , foizda	Kichik biznes va mikrofirma -lar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	190,7	102,3	23,0	105,9	167,7	101,8
Buxoro shahri	95,4	92,8	16,3	98,7	79,2	91,6
Kogon shahri	4,3	102,5	-	-	4,3	102,5
<i>Tumanlar</i>						
Olot	3,6	133,7	-	-	3,6	133,7
Buxoro	8,3	129,3	-	-	8,3	129,3
Vobkent	15,8	143,0	-	-	15,8	143,0
G'ijduvon	14,9	83,5	-	-	14,9	83,5
Kogon	5,6	172,8	-	-	5,6	172,8
Qorako'l	5,8	78,8	-	-	5,8	78,8
Qorovulbozor	6,2	121,2	1,3	143,1	4,9	116,4
Peshku	5,8	102,4	-	-	5,8	102,4
Romitan	15,6	118,1	5,4	125,5	10,2	114,5
Jondor	4,9	117,9	-	-	4,9	117,9
Shofirkon	4,5	171,2	-	-	4,5	171,2

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- aprel holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish) hajmi **891,0** mlrd. so'm bo'lib, bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan **91,1** % ni tashkil etdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **705,8** mlrd. so'm (o'sish sur'ati **104,7** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi **185,2** mlrd. so'mni tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'ish sur'ati, foizda



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot




	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Buxoro viloyati	891,0	100
Buxoro shahri	552,8	62,0
Kogon shahri	1,3	0,1
tumanlar		
Olot	0,9	0,1
Buxoro	5,4	0,6
Vobkent	162,8	18,3
G'ijduvon	146,4	16,4
Kogon	3,3	0,4
Qorako'l	2,4	0,3
Qorovulbozor	0,5	0,1
Peshku	6,7	0,8
Romitan	3,6	0,4
Jondor	1,8	0,2
Shofirkon	2,7	0,3

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Buxoro shahri (**552,8** mlrd. so'm), Vobkent (**162,8** mlrd. so'm) va G'ijduvon (**146,4** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingen va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mld. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar – aprel oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **3 544,1** mld. so‘mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **3,4 %** ga o‘sdi.



Savdo aylanmasi ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **2 556,9** mld. so‘mni tashkil qilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **104,6 %**ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **72,1 %** ni tashkil qildi.




ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga eng yirik korxonalar Olot (**12,8 m.**), Peshku (**12,8 m.**) va Qorovulbozor (**6,6 m.**) tumanlarida kuzatildi.

2023- yil 1- may holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **2 485** tani tashkil etib, 2022- yil 1-may holatiga nisbatan **739** taga ko'paygan, o'sish sur'ati **142,3 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **21** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **2 464** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar – aprel oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	3 544,1	103,4	987,2	100,6	2 556,9	104,6
Buxoro shahri	1 100,0	143,2	51,5	2,7 m.	1 048,5	139,9
Kogon shahri	75,5	70,5	60,7	115,8	14,8	27,0
<i>tumanlar</i>						
Olot	11,6	98,5	0,1	12,8 m.	11,5	97,7
Buxoro	63,6	43,1	-	-	63,6	43,1
Vobkent	470,4	60,8	459,9	60,4	10,5	86,0
G'ijduvon	825	173,2	113,7	125,3	711,3	184,5
Kogon	279,3	142,7	96,7	3,4 m.	182,6	109,1
Qorako'l	26,7	84,1	-	-	26,7	84,1
Qorovulbozor	19,4	65,1	0,1	6,6 m.	19,3	64,7
Peshku	241,6	161,9	204,3	12,8 m.	37,3	28,0
Romitan	187,2	120,0	0,1	2,4	187,1	122,6
Jondor	221,2	57,8	8,3	-	212,9	57,8
Shofirkon	22,6	11,5	-	-	22,6	12,1



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi**
Тел. 65-223-75-63